

IELTSMI YOKI CEFR? TIL BILISH SERTIFIKATLARI TAHLILI

Maxmudova Nargiza Soat qizi*Alfiaganus Universiteti Filologiya fakulteti ingliz filologiyasi yo'nalishi talabasi**nanizng@mail.ru*

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy til bilish darajasini baholashning xalqaro mezonlari – IELTS va CEFR tizimlari tahlil qilinadi. IELTS xalqaro imtihon tizimi sifatida abituriyent va mutaxassislarning ingliz tilidagi bilimini aniq testlar orqali baholashga qaratilgan bo'lsa, CEFR umumiy kompetensiyalarni mezonlashtiruvchi kengroq standart sifatida turli tillar uchun qo'llaniladi. Tadqiqotda ikki tizimning qiyosiy ustunliklari, kamchiliklari hamda O'zbekiston ta'lim tizimidagi qo'llanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: IELTS, CEFR, til kompetensiyasi, baholash tizimi, xalqaro sertifikat, qiyosiy tahlil.

Abstract: This article analyzes the international standards for assessing modern language proficiency – the IELTS and CEFR systems. While IELTS, as an international examination system, is aimed at evaluating applicants' and professionals' English proficiency through specific tests, CEFR serves as a broader standard that benchmarks general competences across different languages. The study examines the comparative advantages and drawbacks of both systems, as well as their potential application within the education system of Uzbekistan.

Keywords: IELTS, CEFR, language competence, assessment system, international certificate, comparative analysis.

Абстрактный: В данной статье анализируются международные критерии оценки уровня владения современными языками – системы IELTS и CEFR. Если IELTS как международная экзаменационная система направлена на оценку знаний английского языка абитуриентов и специалистов с помощью конкретных тестов, то CEFR представляет собой более широкий стандарт, определяющий общие компетенции для разных языков. В исследовании рассматриваются сравнительные преимущества и недостатки обеих систем, а также возможности их применения в образовательной системе Узбекистана.

Ключевые слова: IELTS, CEFR, языковая компетенция, система оценки, международный сертификат, сравнительный анализ.

KIRISH

Bugungi globalashuv davrida xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini puxta bilish shaxsning ta'limiy, ilmiy va kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyatining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xalqaro hamkorlik, akademik mobillik, chet elda ta'lim olish va ish faoliyatini yo'lga qo'yish uchun xorijiy tillarni mukammal bilish bilan bir qatorda, bu bilimni xalqaro miqyosda tan olingan sertifikatlar yordamida tasdiqlash ham zarur. Shu nuqtayi nazardan, til bilish darajasini baholovchi xalqaro standartlarning o'рни tobora ortib bormoqda. Hozirgi kunda dunyo miqyosida eng ko'p qo'llaniladigan va nufuzli hisoblangan ikkita tizim – IELTS (International

English Language Testing System) va CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) keng qo'llanmoqda.

IELTS xalqaro ingliz tili imtihon tizimi sifatida 1989-yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda va bugungi kunda 140 dan ortiq mamlakatda 12 000 dan ziyod tashkilot tomonidan qabul qilinadi.

Ushbu imtihon ingliz tilini o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalarini baholaydi. IELTS akademik va umumiy modulga ega bo'lib, u oliy ta'lim, migratsiya, ish faoliyati kabi maqsadlarda keng qo'llanadi.

IELTSning asosiy xususiyati shundaki, u aniq natija beradi va 1.0 dan 9.0 gacha bo'lgan ball tizimi orqali o'quvchi yoki mutaxassisning ingliz tili bo'yicha bilim darajasini ko'rsatadi.[1]

CEFR esa Yevropa Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan hamda 2001-yildan beri xalqaro ta'lim tizimida qo'llanilayotgan umumiy baholash ramkasi hisoblanadi. CEFR nafaqat ingliz tili, balki boshqa ko'plab tillarni ham o'rganishda qo'llanilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tizim A1 dan C2 gacha bo'lgan darajalarni belgilab, o'rganuvchilarning til kompetensiyasini umumiy kompetensiya va kommunikativ qobiliyat asosida baholaydi.

CEFRning afzalligi shundaki, u butun Yevropa va boshqa ko'plab mamlakatlarda ta'lim dasturlari va til siyosatining asosiy mezon sifatida qabul qilingan.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ham xorijiy tilni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan chet tillarini o'rganishni rivojlantirish bo'yicha qator qaror va farmonlar qabul qilindi.

Xususan, davlat xizmatiga kirishda yoki oliy ta'lim muassasalariga qabul jarayonlarida CEFR darajalari hamda IELTS ballari talab etilmoqda.

Shu jihatdan, ikki tizimning afzallik va kamchiliklarini, ularning qiyosiy jihatlarini tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Masalan, IELTS aniq test sinovi bo'lsa, CEFR ko'proq ta'limiy standart sifatida qaraladi. IELTSning natijasi butun dunyo bo'ylab keng qabul qilinsa, CEFR darajalari o'zining universal qamrovi bilan afzallik kasb etadi.

Shu bilan birga, ikkala tizimning o'zaro muvofiqligi ham mavjud: masalan, IELTS 6.5 balli natija CEFRning B2 darajasiga tenglashtiriladi.

Demak, til bilish darajasini aniqlashda IELTS va CEFR tizimlari o'zaro bog'liq, biroq maqsad va qo'llanish sohasi jihatidan farqlanadi.

Mazkur maqolada ushbu ikki tizimning ilmiy asoslari, baholash mezonlari, o'zaro qiyosiy tahlili va O'zbekiston ta'lim tizimidagi qo'llanish imkoniyatlari batafsil o'rganiladi.

Tadqiqot natijalari kelajakda milliy sertifikatlash tizimini yanada takomillashtirish hamda xalqaro miqyosda raqobatbardosh bo'lishga xizmat qiladi.[2]

Ingliz tilini bilish darajasini belgilovchi test turlari

Ingliz tili testlarining dunyo bo'ylab tan olinadigan IELTS, TOEFL, OET va PTE singari 4 ta asosiy turi mavjud.


Bularning ba'zilar ingliz tilini umumiy bilish darajasini baholasa, ba'zilar ma'lum soha doirasida bo'lib, undagi termin hamda jargonlarni qay darajada tushunishni aniqlab beradi.



IELTS (International English Language Testing System)

Agar siz Avstraliya, Kanada, Yangi Zelandiya, AQSH yoki Buyuk Britaniyada o'qishni rejalashtirayotgan bo'lsangiz, IELTS – yaxshi tanlov. IELTS universitetlarning istalgan yo'nalishida qabul qilinadi. Testni xohishga binoan istalgan paytda, maktab yoki bakalavrni tugatgach, topshirish mumkin.


- IELTS butun dunyoda immigratsiya organlari va muassasalari tomonidan talabalar arizalarini ko'rib chiqishda tan olingan;
- Test sinovlari 0-9 gacha bahonaladi; yuqori ball – yuqori bilim; ba'zi universitetlar, immigratsiya organlari va tashkilotlarda qabul uchun minimal ball belgilangan;
- IELTS testlari bilinni imkon qadar to'g'ri va adolatli baholash imkonini beradigan tarzda ishlab chiqilgan;
- IELTS testlari 4 yo'nalish, o'qib tushunish, tinglab tushunish, gapirish va yozish bo'yicha bilimlaringizni sinovdan o'tkazadi.[3]



TOEFL (Test of English as a Foreign Language)

TOEFL testlari talabalar universitet doirasida erkin muloqot qilishida ko'maklashish maqsadida ishlab chiqilgan. Test, odatda, 4 soat davom etadi va xohishga ko'ra orada 10 daqiqa tanaffus qilish imkoni mavjud. TOEFL imtihonlari, asosan, chetda o'qishni rejalashtirgan talabalar uchun mo'ljallangan.

- TOEFL testlari 0-120 gacha baholanadi;
- Test 4 qismdan iborat: tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish va yozish;
- Adolatli va xolis baholashni ta'minlash maqsadida testlar o'qituvchilar tomonidan online va anonim tarzda baholanadi;
- Sun'iy intellekt va inson omilini birlashtirgan baholash tizimiga ega bo'lgan yagona test tizimi;
- TOEFL ballari natijalar olingan kundan boshlab 2 yil davomida amal qiladi, test topshirish miqdori belgilanmagan, faqat test oralig'i 3 kundan kam bo'lmasligi lozim.



OET (Occupational English Test)

Kasbiy ingliz tili testi hisoblangan OET testi shifokorlar hamda sog'liqni saqlash mutaxassislari uchun ishlab chiqilgan bo'lib, ichki talablar hamda bemorlar bilan muloqotni yaxshilashga qaratilgan. Ushbu test xalqaro talabalarning muloqot va tushunish ko'nikmalarini baholovchi real hayotdagi vazifalar va ssenariylarni o'z ichiga oladi.

- OET stomotologiya, tibbiyot, fizioterapiya, optometriya, veterinariya kabi 12 ta sog'liqni saqlash kasblari uchun ishlab chiqilgan;
- OET testlari belgilangan sinov joylarida online yoki offline tarzda amalga oshirilishi mumkin. Har ikkala tur ham bir xil qiymatga ega hisoblanadi;
- OET tinglash, o'qish, yozish va nutq qobiliyatlarini sinovdan o'tkazadi;
- Buyuk Britaniya, AQSH, Avstraliya, Dubay, Nyu-Yorkdagi universitetlar va shifoxonalar tomonidan tan olingan;
- OET testlari 0 dan 500 gacha va A dan E gacha baholanadi.



PTE (Pearson Language Test)[4]

PTE Buyuk Britaniya, Avstraliya va Yangi Zelandiyaning barcha universitetlarida va boshqa muassasalarda barcha immigratsiya va viza talablari uchun mos deya tan olingan. Test til ko'nikmalarni AI (sun'iy intellekt) yordamida tez va adolatli baholab beradi.

- PTE testi ingliz tilida tinglash, o'qish, yozish va gapirish qobiliyatlarini baholaydi;
- Testni istalgan vaqtda topshirish mumkin, natijalar, odatda, test yakunlangandan boshlab 48 soat ichida ma'lum qilinadi;
- PTE universitetlar tomonidan tan olingan to'liq AI(sun'iy intellekt)ga asoslangan birinchi test tizimidir;
- PTE testlari dunyo bo'ylab belgilangan markazlarda o'tkaziladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hymes, D. On Communicative Competence // Sociolinguistics. - Penguin, 1972. - P. 269-293.
2. Richards, J. C., Rodgers, T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. - 3rd ed. - Cambridge: Cambridge University Press, 2014. - 421 p.
3. Marsh, D. Content and Language Integrated Learning (CLIL): A Developmental Trajectory. - University of Jyväskylä, 2002. - 112 p.
4. Littlewood, W. Communicative Language Teaching: An Introduction. - Cambridge: Cambridge University Press, 1981. - 110 p.